

**CHET EL FUQAROLARI VA FUQAROLIGI BO'LMAGAN
SHAXSLAR AYRIM TOIFADAGI XODIMLAR SIFATIDA**

Yakubjanov Umidjon Ne'matjon o'g'li

X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi Jizzax viloyat bo'limi ish
yurituvchisi

umidyovjonov7@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va mehnat migrantlari tushunchalari o'rganiladi va milliy, MDH davlatlari va Xalqaro huquqiy normalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Chet el fuqarosi, fuqaroligi bo'lmagan shaxs, mehnat migranti, mehnat kodeksi, Xalqaro mehnat tashkiloti, xalqaro shartnomalar.

**FOREIGN CITIZENS AND STATELESS PERSONS AS
EMPLOYEES OF CERTAIN CATEGORIES**

Yakubjanov Umidjon Nematjon ugli

Head of the Jizzakh Regional Department of the Republican Center for Forensic
Expertise named after H. Sulaymonova

umidyakuvjonov7@gmail.com

Abstract: This thesis examines the concepts of foreign nationals, stateless persons, and labor migrants, and analyzes them based on national, CIS countries, and international legal norms.

Key words: Foreign citizen, stateless person, labor migrant, employment contract, labor code, International labor organization, international contracts.

**ИНОСТРАННЫЕ ГРАЖДАНЕ И ЛИЦА БЕЗ ГРАЖДАНСТВА
КАК ОТДЕЛЬНЫЕ КАТЕГОРИИ РАБОТНИКОВ**

Якубжанов Умиджон Нематжон угли

Заведующий Джизакским областным отделением Республиканского центра
судебно-медицинской экспертизы имени Х.Сулаймоновой

umidyakuvjonov7@gmail.com

Аннотация: в данной дипломной работе изучаются и анализируются понятия иностранных граждан, лиц без гражданства и трудовых мигрантов на основе отечественных, стран СНГ и международных правовых норм.

Ключевые слова: Иностранный гражданин, лицо без гражданства, трудовой мигрант, Трудовой кодекс, Международная организация труда, международные договоры.

Butun dunyo transmilliy kompaniyalari, jahonning eng rivojlangan davlatlarida asosiy malakali mutaxassis kadrlarning asosiy tarkibini chet el fuqarolari tashkil etadi. Shuning uchun ham chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mehnatini huquqiy tartibga solish nafaqat rivojlangan davlatlari uchun, balkim O'zbekiston Respublikasi uchun ham hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Chet el fuqarolarining bir hududdan boshqa hududga mehnat qilish uchun ko'chishi ularning mehnat migrantiga aylanganliklarni bildiradi. "Mehnat migranti" – bir davlat hududidan boshqa davlat hududiga ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlar ostida, ish izlab ko'chib o'tadigan shaxsdir.

Xalqaro mehnat migratsiyasi ishchi kuchining jahon mamlakatlari orasida ko'chib yurishi bo'lib, u tashkiliy yoki stixiyali ko'chish jarayonida kechadi hamda bir qator omillar bilan belgilanadi. Bu omillar shartli ravishda iqtisodiy, demografik, siyosiy omillarga bo'linib o'zaro bog'lanadi[1]. Hozirgi davrda jahon miqiyosida mehnat migratsiyasining subyektlari sifatida chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek, qochoqlarni keltirish mumkin.

“O'zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to'g'risida”gi qonuni

3-moddasiga ko'ra, "Chet davlat fuqarosi" – O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo'lmagan, boshqa davlat fuqaroligiga ega va o'zining boshqa davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo'lgan shaxs hisoblansa, "Fuqaroligi bo'lmagan shaxs" – O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan va o'zining chet davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo'lmagan shaxs[2].

Migrantlar deganda ixtiyoriy ravishda oldingi hududlarini o'zlashtiradigan shaxslar tushuniladi. Hayotning ma'lum bir joyiga bog'lanish insonning aqliy va somatik sog'lig'iga, axloqiy munosabatlariga, tabiatni idrok etishga kuchli ta'sir qiladi. Bularning barchasi oila, nasl va etnik kelib chiqish muammolariga olib keladi. Migratsiya jarayoni harakatchanlik bilan chambarchas bog'liq, chunki har qanday muhojir individual, yangi ijtimoiy guruhga qo'shilishdan tashqari, yaxshi siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy sharoitlarni topishni xohlaydi.

Xorijiy xalqaro huquq fanida "mehnat migranti" tushunchasiga oid ta'rif va mulohazalar fransuz xalqaro huquqshunoslari Moris Flori, Rene Chiruning ma'ruzalarida, shuningdek, professor Jerar Lyon-Kanning ishlarida batafsil yoritilgan[3] bo'lsada xalqaro huquq doktrinasida "mehnat migranti" atamasi bo'yicha yagona nuqtai-nazar mavjud emas. Masalan, mehnat migratsiyasini o'rganuvchi nufuzli ingliz olimi P.Stoker xalqaro migrantlarning beshta asosiy turini ajratib ko'rsatadi. Bular ko'chmanchilar, shartnoma asosida ishlaydiganlar, mutaxassislar, noqonuniy immigrantlar, boshpana izlovchilar va qochqinlardir. U o'z asarlarida mehnatkash migrant" atamasini qo'llamaydi.

Xalqaro hujjatlarda tashqi mehnat migratsiyasi subyekti "mehnat migranti" tushunchasi bilan belgilanadi. Bu kontseptsyani ma'lum darajada Davletgildaev

R.Sh., Glazyrin V.V., Jiltsova Yu.V., Zagorulko E.P., Ivanova S.A., Kiselev I.Yalar o'z asarlarida ko'rib chiqishgan[4]. Migratsiya nazariyasining asoschisi Buyuk Britaniyalik geograf E.Ravenshtayn hisoblanadi. U XIX asr oxirida "migratsiya nazariyasi"ni yaratgan[5]. I.S. Maslovaning fikricha, aholi migratsiyasi bu – ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan xodimlarning harakatlanishining obyektiv jarayonidir. V.I. Perevedensevning fikricha esa, aholi migratsiyasi jamiyatning normal faoliyati yuritishning shartlaridan biri bo'lib, uning yordamida mamlakat hududida mehnat resurslari maqbul taqsimlashga erishish mumkin[6].

“Mehnatkash migrant” – bir tomon davlatining fuqarosi bo'lgan, 18 – yoshga yetgan, boshqa tomon davlati hududida yashayotgan va qonunga asosan o'sha yerda haq to'lanadigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxs[7]. Hozirgi davr dunyo olimlari ilmiy munozaralarida “mehnat migranti” va “chet ellik ishchi” tushunchalari o'rtasidagi farq eng asosiy o'rinlardan birini egallagan. Shunisi etiborliki, ba'zi olimlar tomonidan mehnat migranti va chet ellik ishchi aynan bir shaxs ekanligi aytilsa, boshqa olimlar bu ikki atama ikki xil tushuncha deb ta'kidlashadi. Bu yerdagi asosiy muammo qonun hujjatlariga mehnat migranti yoki chet ellik ishchi atamasini yozishda nomoyon bo'ladi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan hujjatlarda doimo mehnat migrantlari deb yuritiladi. Ba'zi davlatlarning qonunchiligida esa chet ellik ishchilar deb yuritiladi. Rossiya Federatsiyasi muomalada chet ellik ishchi atamasi o'rniga mehnat migranti so'zini qo'llashga o'tgan.

“Mehnat migrantlari” tushunchasiga dastlabki xalqaro huquqiy ta'rif Xalqaro mehnat tashkilotining 97-Konvensiyasining 11-moddasida uchraydi.

Konvensiyada “Mehnat migrantlari” atamasiga o‘z hisobidan emas, boshqa ishga joylashish niyatida bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chib o‘tuvchi shaxsni bildiradi va qonun bilan mehnat migranti bo‘lishga ruxsat berilgan har qanday shaxsni o‘z ichiga oladi deb ta’rif berilgan[8]. BMTning “Mehnat muhojirlari va ularning oila a’zolarini himoya qilish to‘g‘risida”gi 1990-yil qabul qilgan Konvensiyasi 2-moddasida, “Mehnat migranti” atamasiga, o‘zi fuqarosi bo‘lmagan davlatda haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanishi kerak bo‘lgan, shug‘ullanayotgan yoki shug‘ullangan shaxsni anglatadi deb ta’rif berilgan[9]. Xalqaro mehnat tashkilotining 143-konvensiyasi 11-moddasida “mehnat migranti – o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlashdan tashqari har qanday ishga joylashish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chib o‘tgan yoki mehnat muhojiri sifatida bir mamlakatga qonuniy ravishda kirgan shaxsga aytiladi” deb yozib qo‘yilgan[10].

MDH davlatlarining 1994-yil 15-aprelda imzolagan “Mehnat migratsiyasi va mehnat migrantlarini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida”gi shartnomaning 2-moddasida, “Mehnat migranti” – jo‘nab ketuvchi tomon hududida doimiy yashovchi, bandlik tomonidagi davlatda qonuniy ravishda haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxs deb atalgan[11]. O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi hukumatlari o‘rtasidagi tuzilgan, “Qozog‘iston Respublikasidagi O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari bo‘lgan mehnatkash-migrantlar va O‘zbekiston Respublikasidagi Qozog‘iston Respublikasining fuqarolari bo‘lgan mehnatkash-migrantlarning mehnat faoliyati va huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Bitim 2-moddasida Mehnatkash migrant tushunchasiga “bir tomon davlatining fuqarosi bo‘lgan, 18 yoshga yetgan, qonuniy asosda boshqa tomon davlati hududida bo‘lib turgan va qonuniy asosda

haq to'lanadigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxs" deb ta'rif berilgan[12]. O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi hukumati o'rtasida "Rossiya Federatsiyasi hududida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini tashkiliy asosda qabul qilish va jalb etish to'g'risida" tuzilgan Bitim 2-moddasida, "mehnatkash migrantlar" - tanlovdan o'tgan va Rossiya Federatsiyasi hududida qonuniy asosda bo'lib turgan hamda ruxsatnoma (patent) mavjud holda Rossiya Federatsiyasi hududida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi 18 yoshga to'lgan shaxs sifatida ta'rif berilgan.

Dunyo bo'yicha mehnat migrantlarining birinchi markazi bu Amerika Qo'shma Shtatlaridir. Ikkinchi markazi esa G'arbiy Yevropa davlatlari hisoblanadi. AQSH va Kanada kabi maxsus immigratsion dasturlarga ega davlatlarga ishchi vizalar olgan holda yashash va ishlash uchun borishga ruxsat beriladi. Yevropa davlatlarida ham bunday migratsion holatlar yaqin o'n yillikdan beri yuz berib kelmoqda.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining 143-Konvensiyasi 1978-yil 9-dekabrda kuchga kirgan bo'lib, ushbu konvensiyani qabul qilgan davlat mehnat muhojirlarining asosiy inson huquqlarini himoya qilish majburiyatini oladi. Har bir a'zo davlat o'z yurisdiksiyasi doirasida ish izlab kelayotgan migrantlarning yashirin va noqonuniy harakatini oldini olishi lozim bo'ladi. Mazkur konvensiya qoidalari bo'yicha, agar mehnat migranti o'zi mehnat qilayotgan davlati hududida ishini yo'qotgan bo'lsa noqonuniy muhojir deb hisoblanmaydi. Shunga ko'ra, mehnat muhojiri mahalliy aholi bilan teng ravishda ish izlash va ish bilan

ta'minlanish huquqiga ega bo'ladi. Konventsiya amal qiladigan har bir a'zo davlat, milliy shart-sharoitlar va amaliyotga mos keladigan vositalar orqali, ish va kasbda, ijtimoiy ta'minot, kasaba uyushmalari va madaniy munosabatlarda teng imkoniyatlar va muomalalarni rag'batlantirish va ta'minlashga qaratilgan milliy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish majburiyatini oladi[13].

XMTning mehnatkash-migrantlar to'g'risidagi 151-son Tavsiyasida bir davlat hududida qonuniy asosda bo'lib turgan mehnat-migrantlari va ularning oila a'zolari mazkur davlat fuqarolari bilan teng ravishda imkoniyatlar va murojaatlardan foydalanishi kerak ekanligi bayon etilgan. Yuqorida keltirilgan konvensiya va tavsiyalarda biror bittasini O'zbekiston qabul qilmagan. Bu holat chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mehnatini tartibga solish xususiyatlarini belgilash bilan bog'liq milliy qonunchiligimizning rivojlanishiga ta'sir o'tkazmoqda[14]. Bundan tashqari, O'zbekistonning xalqaro shartnomalarini hisobga olmasa, milliy qonunchiligimizda mehnat migranti va mehnat migratsiyasi tushunchalari uchramaydi. Shular jumlasiga, "O'zbekiston Respublikasida Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida"gi qonunini misol qilib keltirish mumkin. Qonunning 15-moddasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat qilish huquqiga ega ekanliklari ko'rsatilgan[15]. Rossiya Federatsiyasida esa chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mehnatini huquqiy tartibga solish Rossiya Federatsiyasining Mehnat kodeksi va chet el fuqarolarining huquqiy holati to'g'risidagi Federal qonuni asosida tartibga solinadi[16].

Yangi tahrirdagi mehnat kodeksida 30-bob chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mehnatini tartibga solishga bag'ishlangan. "O'zbekiston

Respublikasi aholi bandligi to'g'risida"gi qonunda ham yuqori malakali va malakali mutaxassislar sirasiga aynan qaysi toifadagi chet el fuqarolari kirishi ko'rsatilgan[17]. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelishlari va bo'lishlari tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-noyabrdagi "Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo'lishlari va tranzit o'tishlari tartibi to'g'risida"gi 408-son qarorida belgilangan[18]. Mazkur Qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar xususiy hamda xizmat ishlari bo'yicha, turist sifatida, dam olish, o'qish, ishlash, davolanish va doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasiga kelishlari va undan ketishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Толаметова З. А. Халқаро меҳнат миграцияси ва унинг ўзига хос хусусиятлари //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2016. – №. 3. – Б.61.
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.03.2020-y., 03/20/610/0299-son.
3. Коротаев Александр Сергеевич. Правовое регулирование труда иностранных работников в Российской Федерации : диссертация ... кандидата юридических наук : 12.00.05 / Коротаев Александр Сергеевич; [Место защиты: Моск. гос. юрид. акад.]. - Москва, 2008. –С.178. РГБ ОД, 61:08-12/430.

4. Асриян Борис Андреевич. Социальные и трудовые права мигрантов в Российской Федерации : Дис. ... канд. юрид. наук : 12.00.05 : Москва, 2004. –С.180. РГБ ОД, 61:05-12/722.

5. Хашимов П. З. и др. Ўзбекистонда аҳоли миграциясининг хусусиятлари //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. 10 (146). – Б. 59.

6. Метелёв, С. Международная трудовая миграция и нелегальная миграция в России. (2022) Litres. - С.18.

7. <https://lex.uz/ru/docs/-2570909>.

8. C097 - Migration for Employment Convention (Revised), 1949. https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::p12100_instrument_id:312242

9. International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-convention-protection-rights-all-migrant-workers>.

10. C143 - Migrant Workers (Supplementary Provisions) Convention, 1975.

https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_INSTRUMENT_ID:312288.

11. Соглашение о сотрудничестве в области трудовой миграции и социальной защиты трудящихся-мигрантов <https://lex.uz/docs/2738231>.

12. O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Qozog‘iston Respublikasi hukumati o‘rtasida Qozog‘iston Respublikasidagi O‘zbekiston

Respublikasining fuqarolari bo'lgan mehnatkash-migrantlar va O'zbekiston Respublikasidagi Qozog'iston Respublikasining fuqarolari bo'lgan mehnatkash-migrantlarning mehnat faoliyati va huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi bitim.
<https://lex.uz/docs/-5373771>.

13. C143 - Migrant Workers (Supplementary Provisions) Convention, 1975.
https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_INSTRUMENT_ID:312288.

14. R151 - Migrant Workers Recommendation, 1975 (No. 151) – ILO
<https://www.ilo.org>.

15. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.06.2021-y., 03/21/692/0528-son, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son.

16. Актуальные проблемы трудового права: учебник для магистров / отв.ред.Н.Л.Лютов. –М.: Проспект, 2017. -С.92.

17. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020-y., 03/20/642/1396-son.

18. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2019-y., 09/19/1050/4253-son.